

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ABDULLAJONOVA DILDORAXON RUSTAMJONOVNA**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY RUHDA  
TARBIYALASHNING ILMIY-METODIK JIHATLARI**

**13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Abdullajonova Dildoraxon Rustamjonovna**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning  
ilmiy-metodik jihatlari..... 3

**Абдуллажонова Дилдорахон Рустамжоновна**

Научно-методические аспекты воспитания детей дошкольного возраста  
в национальном духе..... 23

**Abdullajonova Dildorakhon Rustamjonovna**

Scientific and methodological aspects of education of preschool children  
in the national spirit..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ABDULLAJONOVA DILDORAXON RUSTAMJONOVNA**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY RUHDA  
TARBIYALASHNING ILMIY-METODIK JIHATLARI**

**13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PHD/Ped5343 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kaziyeva Turg‘unoy Tursunbayevna**  
pedagogika fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Zamilova Rimma Ramilyevna**  
pedagogika fanlar doktori (DSc), dotsent

**Quchqorova Nargiza Mamajonovna**  
pedagogika fanlar doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "23" sentabr soat 14<sup>20</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01; faks: (+99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1403 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "16" 09 kuni tarqatildi.  
(2023-yil «16» 09» 09» 13» - raqamli reyestr bayonnomasi).



**T.Fayzullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, s.f.d., professor

**Sh.K.Xo‘jamberdiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**K.M.Boymirzayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, g.f.d. (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon pedagogika fanida sayyoramizning ertasi bo‘lmish kelajak avlodni kichik yoshdan ma’naviy qadriyatlar asosida barkamol inson qilib tarbiyalash vazifalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda pedagogika tadqiq obyekti va predmetiga bevosita aloqador fanlar: psixologiya, falsafa, sotsiologiya hamda o‘zining uzviy bir qismi bo‘lmish etnopedagogikaning asriy tajribalari hamda yangi qo‘lga kiritgan yutuqlariga murojaat etmoqda. Bu borada har bir millatga xos bo‘lgan an’ana va qadriyatlar boy ma’rifiy, ayni paytda didaktik materiallar bera olishi shubhasiz. Umuminsoniy qadriyatlar, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik poydevori bo‘lmish milliy ruhda tarbiyalashni yo‘lga qo‘yishga yo‘naltirilgan loyihalar, ilmiy ishlanma va tadqiqotlar, konferensiyalar hamda turli pedagogik tadbirlar joriy etib kelinmoqda. Bularning barchasi ta’lim va tarbiya jarayonida milliy ruhda tarbiyalashni yo‘lga qo‘yish umumbashariy miqyosda yuksak ma’naviy ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

Dunyoda madaniy-ma’naviy meros, xususan, milliy qadriyatlar vositasida ta’lim-tarbiyani yo‘lga qo‘yishning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish, o‘quv jarayonining bosh subyektlaridan bo‘lmish pedagogik xodimlarning kasbiy kompetensiyasini shu asosda yuksaltirish modelini takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlar, fundamental tadqiqotlar keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Ilk davrdan bolalarni insoniylikning oliy maqomiga muvofiq tarbiyalashni maqsad qilib qo‘ygan maktabgacha ta’lim tizimi bugungi yosh avlodni buyuk ajdodlariga munosib, o‘z zamonining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy muammolarini ma’rifat yo‘li bilan hal etishga qodir, kurrai zamin kelajagi oldida mas’ul qilib tarbiyalashga intilishi hayotiy zarurat bo‘lib, erishilgan natijalar va o‘zlashtirilgan tajribalarni amaliyotga tatbiq etish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yosh avlodni milliy an’analar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ma’rifatli insonlar qilib tarbiyalash ijtimoiy sohadagi muhim vazifa o‘laroq tayin etilgan. “Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlan”gan o‘zbek zaminida yurtimiz ertasi bo‘lmish yosh avlodning aqliy-intellektual salohiyatini yuksaltirish bilan birga ularning ma’naviy takomili uchun ham huquqiy asoslar qabul qilingan. Ayniqsa, bolalarning maktabgacha yosh davridagi ta’lim va tarbiyasiga e’tibor tubdan o‘zgarganligini e’tirof etish o‘rinlidir. Zero, “...maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta’lim muassasalarining moddiy texnika bazasini yaxshilash”<sup>1</sup> masalalarining ko‘ndalang qo‘yilishi orqali maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning yo‘nalishlari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 29-dekabrda “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-son qarori.

mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 5-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori<sup>2</sup>, shuningdek, hamda sohaga oid me'yoriy huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularni intellektual, estetik, ekologik va jismoniy rivojlantirish bilan aloqadorlik jihatlari D.A.Abdurahimova, Z.E.Azimova, T.I.Chabrova, N.Kayumova, X.Yo.Najmiddinova, F.R.Qodirova, T.L.Xurvaliyeva, N.M.Quchqorova kabi tadqiqotchilarning ishlarida, yosh avlodni milliy ma'naviyat ruhida tarbiyalash muammolari M.Inomova, A.Mavrulov, I.Xo'jaxonov, B.To'rayevlarning asarlari va tadqiqotlarida ochib berilgan. maktabgacha ta'lim yoshida milliy, axloqiy, ekologik tarbiyani shakllantirish yo'l-yo'riqlari Z.Azizova, V.Qodirovlar monografiyasida, O.Otavaliyeva, O.R.Jamolidinova, M.A.Salixova, G.O.Komilova, M.R.Xalilova dissertatsion tadqiqotlarida, A.Qodirov, M.Quronov va boshqalarning trilogiyasiga kirgan kitoblarida yoritilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi tadqiqotchilaridan maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida milliy ruhda tarbiyalash masalalarining psixologik hamda umumpedagogik jihatlari Л.С.Выгоцкий, Е.Д.Хомская, А.Р.Лурья, Б.Т.Лихачёв, О.Поляков, Л.М.Захарова ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Xorijlik tadqiqotchilar Jean Piaget (J.Piaje), K.Tongar, Haluk Yavuzer, A.Cameronlar maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda ta'lim tashkilotlari hamda oilada milliy, ma'naviy, estetik tarbiyani yo'lga qo'yish, bunda badiiy adabiyot, tasviriy san'at imkoniyatlaridan foydalanishda muqobil o'quv dasturlarni qo'llash muhimligi, bolalarni har tomonlama rivojlanishiga erishish uchun didaktik tadbirlari tizimini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

**Tadqiqotning dissertatsiyasi bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Andijon davlat Pedagogika institutining "Maktabgacha ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar xamda xorijiy tajribalarni tadbik etishning nazariy va amaliy asoslari" nomli asosiy ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

---

<sup>2</sup> <https://lex.uz/uz/docs/4676839>

**Tadqiqotning maqsadi** maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘zbek xalqi ma’naviy qadriyatlari asosida milliy ruhda tarbiyalashning ilmiy-metodik jihatlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** sifatida quyidagilar belgilandi:

maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘zbek xalqi ma’naviy qadriyatlari asosida milliy ruhda tarbiyalashning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish;

qarindoshlar imidjidagi milliy qo‘g‘irchoqlar vositasida milliy ruhda tarbiyalashni yo‘lga qo‘yishning amaliy-metodik jihatlarini ochib berish;

tarbiyada bola tengdoshi bo‘lgan milliy qahramonlarni yaratish orqali milliy ruhda tarbiyalashni yo‘lga qo‘yishning metodikasini yaratish;

milliy ruhda tarbiyalashni yo‘lga qo‘yishda maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligini mustahkamlashning pedagogik mexanizmini takomillashtirish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotlardagi o‘zbek xalqi ma’naviy qadriyatlari asosida bolalarni milliy ruhda tarbiyalash jarayoni tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘zbek xalqi ma’naviy qadriyatlari asosida milliy ruhda tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda nazariy-mantiqiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik tajriba o‘tkazish, kuzatish, suhbat, so‘rovnomalar tarqatish, solishtirish, matematik-statistik tahlil singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘zbek xalqi ma’naviy qadriyatlari asosida milliy ruhda tarbiyalashning yosh va gender madaniyat bilan bog‘liq psixologik-pedagogik xususiyatlari, qadriyatlarga tayanish, birgalikdagi faoliyatni tashkil qilish, tolerantlik, javoaviylik kabi tamoyillarning o‘zaro muvofiqligini bevosita hisobga olish orqali aniqlashtirilgan;

qarindoshlar imidjidagi milliy qo‘g‘irchoqlar vositasida milliy ruhda tarbiyalashni yo‘lga qo‘yishning amaliy-metodik jihatlarini o‘g‘il va qiz bolalarning gender farqlarini hisobga olish, “Tanishtiruv”, “Bu nima”, “Ayvonchani tuzaymiz”, “Meni ta’riflang” kabi o‘yinli metodikalarning adaptivligini ta’minlash orqali takomillashtirilgan;

tarbiyada bola tengdoshi bo‘lgan milliy qahramonlarni yaratish orqali milliy ruhda tarbiyalash metodikasi maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligiga asoslangan madaniy identifikatsiya jarayonida hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha interfaol ish shakllari o‘rtasida qayta aloqaning barqarorligini ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

milliy ruhda tarbiyalashni yo‘lga qo‘yishda maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligini mustahkamlashning pedagogik mexanizmi xalq pedagogikasi an’analariga ustuvorlik berish asosida yaqin kattalar vositasida bolalarning ma’naviy tahdidlardan muhofaza qilishning diagnostik vositalarni modifikatsiyalash orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy ruhda tarbiyalash tarbiya berishning metodologik va pedagogik asoslari muammoni hal etishning huquqiy negizlari, etnopedagogik manbalarda, badiiy va ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan g‘oyalarga tayangan holda ochib berilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarga kichik yoshdan milliy mentalitetimiz ruhini singdirishga yo'naltirilgan qarindoshlar imidjidagi qahramonlar – oila a'zolari, yaqin qarindoshlik va qo'shnichilik munosabatidagi obrazlar yaratilib, ularni faoliyat markazlari mashg'ulotlarida qo'llash bilan bog'liq amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ta'lim va tarbiyani bolalar ruhiyati, yashash tarzi, tafakkuriga muvofiqlashtirish maqsadida tarbiyalanuvchilarga tengdosh bola (qizaloq)lar obrazlarini yaratish orqali milliy ruhda tarbiyalashni samarali yo'lga qo'yish shakl va vositalari taklif etilgan;

asriy xalq an'analariga tayanib, yosh avlodni ajdodlarimiz tajribasiga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oila bilan hamkorligini pedagogik tajriba, shuningdek, yurtimiz olimlari tadqiqotlarini uyg'unlashtirish holda yo'lga qo'yish mexanizmi taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Bilish nazariyasining dialektik metodi, ta'lim-tarbiya jarayoni va hodisalarini tizimli o'rganish texnologiyasi, mamlakatimizdagi, xorijdagi metodist, pedagog va psixolog olimlarining ilmiy-nazariy g'oyalariga asoslanilganligi, bir-birini uzluksiz to'ldirib boruvchi pedagogik va didaktik usullar qo'llanilganligi, maktabgacha ta'limda milliy ruhni singdirishni takomillashtirish mexanizmi yaratilganligi, tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy g'oyaning tajriba-sinovda ijobiy natija berganligi, olingan natijaning matematik-statistik tahlil metodi asosida umumlashtirilganligi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarbiyalanuvchilarga milliy ruhni singdirishning metodologik va ilmiy-pedagogik o'ziga xosligi metodikaning so'nggi yutuqlariga tayangan holda o'rganganligida; milliy mentalitetni tarbiyalash bolalarning spotan tajribasi, yosh xususiyatlaridan kelib chiqib milliy ruhda tarbiyalash samaradorligining bosh omili sifatida tayin etilganligida; maktabgacha ta'limda metodik yo'riqlarni tahlil qilish orqali bu bosqichda maqsadga ko'ra ta'lim mazmunini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari aniqlanganligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olib borilgan tajribalarga tayangan holda MTTdagi mashg'ulotlar hamda faoliyat markazlaridan tashqaridagi o'qish mashg'ulotlarida o'rganishga tavsiya qilingan metodikalar asosida tarbiyachilar, ular vositasida bu bosqich tarbiyalanuvchilarning milliy mentalitet atributlariga adaptasiya ko'nikmalari, milliy hayot tarziga kirishish kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan yo'riqlar berilganligi; maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi faoliyat markazlari mashg'ulotlarida o'quv dasturi mavzulari hamda materiallaridan kelib chiqib, tarbiyalanuvchilarga milliy ruhda tarbiya berishning yangi usul hamda vositalari tavsiya etilganligi; MTTlardagi mashg'ulotlarda milliy ruhda tarbiyalashni samaradorligini oshirish uchun yangi shakl va mazmundagi didaktik materiallar tavsifi berilgani hamda aniq obrazlar qiyofasida yaratilgani; tarbiyalanuvchilar yoshiga hamda mazkur ta'lim bosqichi tabiatiga mos keladigan milliy ruhni singdirishning o'ziga xos metodlari havola qilingani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning ilmiy-metodik jihatlarini yuzasidan yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zbek xalqi ma'naviy qadriyatlari asosida milliy ruhda tarbiyalashning yosh va gender madaniyat bilan bog'liq psixologik-pedagogik xususiyatlari, qadriyatlarga tayanish, birgalikdagi faoliyatni tashkil qilish, tolerantlik, javoaviylik kabi tamoyillarning o'zaro muvofiqligini bevosita hisobga olish orqali aniqlashtirishga oid takliflari «Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish» nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 28-dekabrda 676-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, 676-098 raqamli guvohnoma). Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarni qarindoshlar imidjidagi milliy qo'g'irchoqlar yaratish orqali bolalarga milliy ruhni singdirishning shakllari, mazmuni belgilangan va metodikasi yaratilgan;

qarindoshlar imidjidagi milliy qo'g'irchoqlar vositasida milliy ruhda tarbiyalashni yo'lga qo'yishning amaliy-metodik jihatlari o'g'il va qiz bolalarning gender farqlarini hisobga olish, "Tanishtiruv", "Bu nima", "Ayvonchani tuzaymiz", "Meni ta'riflang" kabi o'yinli metodikalarning adaptivligini ta'minlash orqali takomillashtirishga doir tavsiyalari Andijon davlat universitetida 2020-2022-yillarda bajarilgan FZ-202001064 – "Oliy ta'lim muassasalari negizida maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT)ning zamonaviy didaktik metodika ta'minotini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2023-yil 11-martdagi 39-04-676-son ma'lumotnomasi). Natijada ta'lim va tarbiyani bolalar ruhiyati, yashash tarzi, tafakkuriga muvofiqlashtirish maqsadida tarbiyalanuvchilarga tengdosh bola (qizaloq)lar obrazlarini yaratish orqali milliy ruhda tarbiyalashni samarali yo'lga qo'yish shakl va vositalari taklif etilgan;

tarbiyada bola tengdoshi bo'lgan milliy qahramonlarni yaratish orqali milliy ruhda tarbiyalash metodikasi maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligiga asoslangan madaniy identifikatsiya jarayonida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha interfaol ish shakllari o'rtasida qayta aloqaning barqarorligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan va milliy ruhda tarbiyalashni yo'lga qo'yishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini mustahkamlashning pedagogik mexanizmi xalq pedagogikasi an'alariga ustuvorlik berish asosida yaqin kattalar vositasida bolalarning ma'naviy tahdidlardan muhofaza qilishning diagnostik vositalarni modifikatsiyalash orqali takomillashtirishga oid takliflari «Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish» nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 28-dekabrda 676-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, 676-098 raqamli guvohnoma). Natijada asriy xalq an'alariga tayanib, yosh avlodni ajdodlarimiz tajribasiga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oila bilan hamkorligini pedagogik tajriba, shuningdek, yurtimiz olimlari tadqiqotlarini uyg'unlashtirish holda yo'lga qo'yish mexanizmi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy

natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 132 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ishning fan va metodikalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy ruhda tarbiyalashni yo'lga qo'yishning nazariy asoslari**" deb nomlanib, unda maktabgacha ta'limda milliy ruhda tarbiyalashni yo'lga qo'yishning metodologik va pedagogik asoslari belgilangan. Kuzatishlarimiz, izlanishlarimiz natijasi o'laroq dastlabki paragrafda bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, uzviylik tamoyili asosida milliy ruhda tarbiyalashni yo'lga qo'yishda quyidagi manbalar metodologik asos vazifasini o'tashini belgilash mumkin: 1. Respublikamiz Prezidentining asarlari va turli munosabat bilan irod qilgan nutqlaridagi yosh avlod tarbiyasi, xususan, maktabgacha ta'limdan boshlanadigan ta'lim jarayonida milliy ruhda tarbiyalashni yo'lga qo'yish borasidagi ko'rsatmalari; 2. Muqaddas dinimizning asos manbalari bo'lmish Qur'oni karim va sunnati shariflarda keltirilgan o'zlikni bilishga ishora qiluvchi oyat hamda hadislar, Islom diniga asoslangan tasavvuf ta'limotiga bog'liq holda vujudga kelgan tajalli nazariyasi, xususan, bu nazariya markaziga qo'yilgan komil inson tarbiyasini ko'zda tutgan g'oya; 3. Sharq mutafakkirlari, jumladan, Movarounnahrda yetishib chiqqan allomalar asarlaridagi ta'lim-tarbiya bilan bog'liq qarashlar; 4. Milliy uyg'onish davri (ma'rifatparvarlik, jadidchilik harakati) namoyondalarining milliy o'zlikni bilish, milliy qadriyatlarni ulug'lash va asrash, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash borasidagi qarashlari; 5. Yangi davr (XX-XXI asr) adiblarining milliy qadriyatlar mavzusidagi asarlarining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy talqini; 6. Mavzumizga aloqador bo'lgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar va adabiyotlar. Bu huquqiy asos, nazariy, badiiy, ijtimoiy qarashlar in'ikosida millatning o'z qadriyatlariga bo'lgan falsafiy munosabatlari ifodalangan. Faqatgina falsafiy munosabatlar tizimida, milliy madaniyatning rivojlangan shaklida bo'lgani kabi, milliy ruhga yaqin bo'lgan voqyelik hayotga tatbiq etiladi, xalqning tarixiy tanlovining o'ziga xosligini aks ettiradi va milliy falsafaning asosiy xususiyatlarini tavsiflaydi.

Har qanday pedagogik faoliyatda bo'lgani kabi maktabgacha ta'limda milliy ruhda tarbiyalashni yo'lga qo'yish dastur mavzulari bilan bog'liq muhim vazifalaridan biri bu boradagi faoliyatning maqsadi, vazifasi va mazmunini aniqlab olish sanaladi. Chunki bu tushunchalar maktabgacha ta'limdagi ta'lim-tarbiya jarayoni, xususan, faoliyat markazlari mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilar ongi,

dunyoqarashi va xatti-harakatlarida milliy ruhda tarbiyalashni shakllantiruvchi omillarni amaliy tatbiq etishning asoslarini tashkil qiluvchi kategoriyalardir. Maktabgacha ta'limda yo'lga qo'yiladigan har bir tarbiya turi o'zining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, muayyan darajada maqsad hamda vazifalariga ko'ra farqlanishi tabiiy. Shular qatori maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning maqsadi, vazifalariga ayri-ayri bir yondashuv hamda o'ziga xos ta'rif zarurati o'rtaga chiqadi. Maktabgacha ta'limda milliy ruhda tarbiyalashning maqsadi murg'ak davrdan milliy dunyoqarash, milliy xarakter shakllana boshlagan, ruhiyatiga milliy ma'naviyat urug'i ekilgan avlodni tarbiyalashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- tarbiyalanuvchilarda millat tushunchasini shakllantirish va mashg'ulotlarda uning atributlar bilan tanishtirish;
- milliy urf-odatlar haqida ma'lumot berish hamda bolalar yoshiga mos ravishda ularga amaliy rioya qilish ko'nikmasini hosil qilish;
- milliy bayramlar, ularning mazmun-mohiyatini tarbiyalanuvchilar ongu shuuriga singdirish;
- yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'ularini tarbiyalash, ularda milliy xarakter belgilarini ko'ra olish qobiliyatini shakllantirish;
- bolalarda Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik, yurtga daxldorlik hissini tarbiyalash.

Belgilangan maqsad, vazifalar ularga muvofiq tarzda yaratilgan hujjatlar va didaktik ashyolarda aks etuvchi ta'lim mazmuniga tayangan holda amalga oshiriladi. Hozirda amalda bo'lgan "Ilk qadam" o'quv dasturida (yoki muqobil ravishda yaratilgan variativ dasturlarda), MTTlardagi besh faoliyat markazlari hamda musiqiy va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun yaratilgan ko'rgazmali qurollar, multimedia mahsulotlari hamda metodik qo'llanmalarda maktabgacha ta'lim bosqichi ta'lim-tarbiya mazmuni aks etadi. Bu MTT faoliyati uchun umumiy tarzdagi ta'lim mazmunini ifoda etadi. "Ilk qadam" o'quv dasturida tavsiya qilingan yillik mavzuviy rejadagi oy mavzulari va ular ichida taqsimlangan yosh guruhlari bo'yicha hafta mavzularini ko'zdan kechirar ekanmiz, bu borada katta imkoniyatlar taqdim etilganigi holda milliy ruhda tarbiyalashni singdirish aksar hollarda tarbiyachining ijodkorligi, izlanuvchanligiga qilinganiga amin bo'lamiz. Har bir mavzuni o'tishda tarbiyachi haftaning har kunida nimadir yangilik qilishi, yangicha yondashuv bilan ishlashi lozim, ya'ni o'quv materiallarini mohiyatan milliylik asosida maqsadga yo'naltirib, ta'lim mazmunini boyitishi kerak bo'ladi. Bobning alohida paragrafida dasturga ko'ra yillik mavzuviy rejada berilgan mavzular milliy ruhda tarbiyalashni ko'zlagan holda qay yo'sinda mazmunan boyitilishi, qay darajada qo'shimchalar qilinishi mumkinligi borasida ilmiy izlanishlardan kelib chiqib, faoliyat markazlari mashg'ulotlari uchun metodik tavsiyalar berilgan.

Ta'limning dastlabki bosqichi bo'lmish MTTlarda mashg'ulotlarni olib borish jarayonida bolalarni milliy ma'naviy sifatlar sohibi qilib tarbiyalash, bu yo'nalishdagi mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etishda amal qilinadigan o'ziga xos a) milliy ruhda tarbiyalashni yo'lga qo'yishda milliy qadriyatlarga tayanish, b) ta'lim-

tarbiya jarayonining barcha shakllarida integrasion yondashuv zarurligi, v) individual yondashuv, g) bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olish, d) bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyatini yo'lga qo'yish, ye) milliy ruhda tarbiyalashning baynalmilallik va tolerantlik xarakterga ega ekanligi, j) ixtiyoriylik, z) jamoaga yo'nalganlik kabi sakkiz tamoyil belgilab olingan. Bob so'ngida umumlashtiruvchi xulosalar qilingan.

Ikkinchi bob **“Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy ruhda tarbiyalashni yo'lga qo'yishning pedagogik imkoniyatlari”** deb nomlanib, uch fasldan iborat. Avvalo, har bir xalq o'zining mentaliteti, asriy an'analari, madaniyatidan kelib chiqib o'yinchoqlar yaratib kelganiga e'tibor qaratilgan. O'yinchoqlar qiyofasida millatning antropologik belgilari aniq ufurib turadi: yuz tuzilishi, ko'zi, burni, sochlarining rangi kabi jihatlar milliy, hech bo'lmaganda hududiy mansublikni aytib turadi. Shuning uchun ham turli millatlarning o'yinchoqlari bir-biridan farq qiladi.

Asrlar davomida shakllangan va rivojlangan o'zbek qo'g'irchoqbozligining o'z an'analari bo'lgan, milliy xarakterga va qiyofaga ega qahramonlari yaratilgan. Ulardan biri Kachal polvon bo'lib, o'zining bir qator fazilatlari, ba'zan uchraydigan kamchilik va xatolari bilan hayotiy gavdalanadigan xalqchil obraz sifatida xalq orasida tanilgan qahramon bo'lgan. Mustaqillik yillarida esa tarixiy milliy qahramonlarni bolalar uchun sahnaga olib chiqish harakati boshlandi, buning natijasida “Kachal polvon”, “Alpomish”, “Zumrad va Qimmat”, “Kenja botir” kabi badiiy va multiplikatsion filmlar orqali bolalarga tanish milliy qahramonlar obrazi yaratilgan. Bolalar ularni bilishadi, tanishadi va sevib tomosha qiladilar. Ular orqali millatimizga xos fizilat, muayyan jihatlarni singdirish mumkin. Lekin xalqimiz ertasi bo'lmish yosh avlodga milliy ruhni singdirishga bularning o'zi kifoya qilmaydi. Bizningcha, maktabgacha ta'limda farzandlarimizni milliy ruhda tarbiyalash uchun mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqarida foydalanadigan xarakter hamda ko'rinishi milliy qiyofaga ega qo'g'irchoqlarni, to'g'rirog'i, qo'g'irchoqlar galareyasini yaratish muhimdir. Xususan, bola tug'ilganidan unga ta'sir o'chog'i bo'lgan oilaning a'zolari hamda yaqin qarindoshlar imidjidagi qo'g'irchoqlarni yaratish, bu qo'g'irchoqlarni MTTlaridagi olib boriladigan mashg'ulotlarda qo'llash, mashg'ulotlardan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarda ulardan foydalanish bu boradagi ishlarning eng samarali yondashuvlaridan biri bo'lishi shubhasiz. Biz bu borada ilgari surayotgan taklif, g'oya maktabgacha yoshdagi bolalar uchun alohida milliy imidji bilan ajralib turadigan oila a'zolari: bobo, buvi, ota, ona, aka, opa, uka, singil; qarindoshlar: amaki, tog'a, amma, xola obrazlarini yaratish va ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishdir. Ushbu obrazlar milliy qiyofa, milliy mentalitetimizning u yoki bu jihatini o'zida gavdalanitiradigan bo'lib, ular o'zlariga birlashtirilgan muayyan etnik belgilar hamda xarakterlarni tavsiflashlari kerak.

Ushbu qo'g'irchoqlar tayyorlanib, MTTga yetkazilgach, ulardan foydalangan holda faoliyat markazlari mashg'ulotlarini “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida olib boriladi. Rivojlantiruvchi faoliyat markazlarida ushbu yaratilgan milliy qo'g'irchoqlardan foydalangan holda to'laligicha mavzularni yoritish, tushuntirish dastur talablarini bajarish bilan birga milliy ruhda tarbiyalashni yo'lga

qo'yishda ularning mazmun-mohiyatiga muvofiq yaratilgan metodlarni qo'llash orqali ta'lim sifat va samarasi ta'minlanadi. Masalan, kichik yosh guruhlarida "Bu kim? Bu nima?" metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Metod deganimiz sababi mashg'ulot to'lig'icha "Bu kim?" va "Bu nima?" so'roqlariga asoslanadi. "Bu kim?" havola etilayotgan, ko'rsatilayotgan qo'g'irchoq kimni gavdalantirayotgani bo'lsa, "Bu nima?" ular kiygan milliy kiyim yoki qo'shimcha qilingan qaysidir millatga xos boshqa narsani nazarda tutadi. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematik tasavvurlarni shakllantirish faoliyat markazi uchun "Kattadan kichikka, ketma-ketlikda", "Mosini top", "Kiyinishga yordam beramiz" metodlar mosdir. Dastlab sanalgan metodning birinchi bosqichida har bir bola o'z oila a'zolarining nechtaligini va ularning yoshiga ko'ra ketma-ketligini aytgan holda sanab berishi kerak bo'ladi. Masalan, "Bizning oilamiz sakkiz kishidan iborat. Ular: bobom, buvim, dadam, onam, akam, opam, men va singlim". Keyingi boshqa bolada boshqacha bo'lishi mumkin: "Bizning oilamizda besh kishi bor: buvim, dadam, onam, akam va men". Demak, har bir bola o'z oilasidan kelib chiqib javob beradi. Ikkinchi bosqichda tarbiyalanuvchilar shu tartibda oila a'zolarining kiyimlarini tavsiflab beradilar. Bunda turli yoshdagi o'zbek millatiga mansub kishilar uchun to'g'ri keladigan milliy kiyimlar suratlari bolalar e'tiboriga havola qilinadi. Bu suratda erkak va ayollar (qizlar) do'ppilari, ro'mol, to'n, salla, ko'ylak (erkaklar hamda ayollar, jumladan, atlas, adrasdan tikilgan ko'ylaklar), tufli, kavush, kalish, shalvor kabilar berilgan bo'ladi. Bolalar oila a'zolarining kiyimlarini tavsiflaganda ulardan foydalanish lozimligi, negaki biz o'zbeklar uchun milliy kiyimlarimiz xosligi uqtiriladi. Shu taxlit har bir faoliyat markazi uchun muayyan metod, usul hamda didaktik vositalar taqdim etilgan.

Kuzatishlarimizga ko'ra, bolaga tavsiya etilayotgan qo'g'irchoq-o'yinchoqda quyidagi uch xususiyat bo'rtib turishi hamda ular vositasida milliy ruhda tarbiyalashni singdirish yo'lga qo'yish lozim, ya'ni qo'g'irchoq: a) millatning o'ziga xosligini namoyish etishi; b) bola yoshiga xos va mos ko'rinishda yaratilishi; s) bolaga tengdosh sifatida taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir. Ular ichida uchinchi xususiyat o'ziga xos ta'sir kuchiga ega. Bola har bir yoshda ulg'aygani sari tengdoshlariga intilishi, ularning u yoki bu jihatdan qo'llab-quvvatlashlariga berilishi kuchayib boradi. Qabul qilingan me'yoriy hujjat (standart)da tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash uchun huquqiy asos va didaktik ko'rsatmalar mavjud. Endilikda amaliyotda faoliyat ko'rsatayotgan soha xodimlarining ijodiy yondashuvi talab etiladi. Masalan, o'g'il bola va qiz bola qo'g'irchoqlari har bir guruhda minimal beshtadan bo'lishi haqidagi ko'rsatmani olaylik. Ularni tayyorlashda bir xil format, ko'rinish bilan chegaranib qolmay, imkon qadar har xil yasash maqsadga muvofiq. Aytaylik, beshta o'g'il bola – qo'g'irchoq quyidagi kiyimlarda bo'lishi mumkin: a) birinchi qo'g'irchoq – egnida yaktak (yoqasiz ko'ylak, oq surpdan tikiladi), boshida chust do'ppi; b) ikkinchi qo'g'irchoq – egnida yaktak, belida belbog', boshida marg'ilon do'ppi; s) uchinchi qo'g'irchoq – egnida surxoncha to'n va boshida surxoncha dumaloq shaklidagi gulli do'ppi; d) to'rtinchi qo'g'irchoq – egnida xorazmcha to'n, boshida cho'girma (xorazmcha telpak) yoki taxya (xorazmcha do'ppi); ye) beshinchi qo'g'irchoq – egnida beqasam to'n, boshda andijoncha (yoki boshqa hududga xos) do'ppi.

Barchasining pastki qismida kiyimga mos shim yoki shalvor “kiydiriladi”. Qiz bola qo‘g‘irchoqqa ham xuddi shunday yondashuv zarur bo‘ladi. Maqsadni amalga oshirishda qo‘l keladigan “Tanishtiruv”, “Bu nima”, “Ayvonchani tuzaymiz”, “Meni ta’riflang” kabi metodlarning mohiyati ochib berilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oila bilan hamkorligini pedagogik tajriba, shuningdek, yurtimiz olimlari tadqiqotlarini uyg‘unlashtirilgan holda yo‘lga qo‘yish mexanizmi yosh avlodga milliy madaniyat va qadriyatlar, millat genofonida doimo mavjud bo‘ladigan ruh yuksak axloqiy ideallar, ajdodlardan o‘tib kelayotgan ichki ma’naviy quvvat o‘laroq singdirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy qiyofadagi “Men”ini tarbiyalash jarayonida bolalar, ota-onalar va pedagoglarning birgalikdagi ijodiy faoliyati muhimdir. Ikki tomon – oila va MTT ushbu maqsad (milliy ruhda tarbiyalash) yo‘lida birlashar ekan, uni amalga oshirishni o‘zlarining ustuvor vazifasi sifatida belgilashlari lozim. Bunda oilaning roli ayricha ahamiyat kasb etadi. Bu ota-onalarning o‘z millati va boshqa xalqlarga nisbatan milliy xulq-atvor va munosabat tashuvchisi ekanligi bilan bog‘liq. Xalqimiz orasida “Qush inida ko‘rganini qiladi” maqolining keng yoyilgani bejiz emas. Oilada tarbiyaga mas’ullar madaniy identifikasiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning millat, milliy manfaatlar, to‘g‘ri xulq-atvor ko‘nikmalari, shaxsning axloqiy fazilatlarini shakllantira boshlaydilar, jamoadagi (oilada aka-uka, opa-singillari, MTTda guruhdoshlari, mahallada tengdoshlari bilan) mikroiqlimni yaxshilaydilar, ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etadilar, kattalar va bolalar uchun millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalaydilar yoki shunga tayyorlaydilar.

Hamkorlikdagi milliy ruhda tarbiyalashni yo‘lga qo‘yishda adabiyotlarda qayd etilgan, ta’lim-tarbiya amaliyotida maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligining keng qo‘llanadigan shakllariga murojaat qilinadi. Ular orasida keng tarqalganlari: a) ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash, b) ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar, v) ko‘rsatmali ishlar, g) ota-onaga pedagogik ta’lim berish kiradi. Mazkur shakllar ilmiy-metodik, o‘quv-uslubiy adabiyotlarda qayd etiladi, lekin ularning hech birida tarbiyalanuvchilarga milliy ruhda tarbiya berishda MTT va oila hamkorligi to‘g‘risida alohida to‘xtanilmaydi. Shu bois alohida paragrafda mazkur shakllarda aynan milliy ruhda tarbiyalashni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlari bir muncha keng bayon qilindi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va natijalari**” deb nomlanadi. Ushbu bobda, avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruhda tarbiyalash yuzasidan tajriba-sinov ishlari mazmuni va tashkiliy jihatlari yoritildi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalashning mavjud holati atroflicha tahlil qilinib, u asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasi, usul hamda vositalarini takomillashtirishga e’tibor qaratilib, unda muayyan talablarga asoslanish maqsadga muvofiqligi belgilandi. Bu talablarning maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy ruhni singdirish yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari rejasi hamda dasturi, tajriba-sinov ishlari mazmuni, shuningdek, ularning natijalariga uyg‘unligi ta’minlandi.

Tadqiqot doirasidagi ilmiy va amaliy izlanishlar, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruhda tarbiyalash yuzasidan olib borilgan tajriba–sinov ishlari quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

**1. Aniqlovchi-ta'kidlovchi tajriba sinov ishlari** (2019-2020-o'quv yili). Bu bosqichda milliy ruhda tarbiyalash hamda tarbiyalanuvchilarda uni shakllantirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, pedagogik asarlar, mavzuga oid Internet materiallari o'rganildi. Ushbu bosqichdagi tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratildi: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy ruhda tarbiyalashni yo'lga qo'yish holati, joriy yo'riqlarini o'rganish, mazkur yo'nalishda mavjud didaktik materiallar va adabiyotlarga ehtiyojni o'rganish hamda aniqlangan kamchiliklarni barataraf etish yo'llarini belgilab olish.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, viloyatlardagi aksar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy burchaklar tashkil qilingan, lekin ularni standart asosida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga muvofiq rivojlanish sohalari bo'yicha guruh xonalarini jihozlash, xususan, milliy burchaklarda bo'lishi kerak deb ko'rsatilgan ashyolar bilan ta'minlash ko'ngildagidek emas. Xususan, milliy ko'rinishdagi qo'g'irchoqlar yo'q yoki do'konlardagi yevropa uslubi ko'rinishidagilari qo'yilgan. Holbuki, standartda milliy kiyimda bo'lishi ko'rsatib qo'yilgan. Ba'zilarida milliylikimiz atributi bo'lgan adras, atlas matolar ham qo'yilmagan. Afsuslanarlisi, MTTlarda kuzatilgan mashg'ulotlarda tarbiyachilarining mashg'ulotlar mazmuniga milliy ruhda tarbiyalashni singdirish, imkoniyatlari aniq bo'lib turgani holda ayni shu jihatlarga e'tibor qilmasliklari kuzatildi. Shuningdek, milliy ruhda tarbiyalash mavzusida nashr qilingan adabiyotlardan tarbiyachilarining aksariyati bexabarlar, shu bois o'tkazilgan suhbatlarda bir qator savollarga javoblar ochiq qoldi. Ayni paytda oz bo'lsa-da, ba'zi MTTlarda tashkilotning, shuningdek, tuman/shahar maktabgacha ta'lim bo'limlari metodistlari jonkuyarligi, milliy ruhda tarbiyalashga ayricha diqqat qaratgani natijasi o'laroq g'oyat ibratli ta'lim-tarbiya jarayoni va tadbirlar o'tkazilib kelgan.

**2. Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari** (2020-2021-o'quv yili). Ushbu bosqichdagi ishlarni amalga oshirishda quyidagi bir qator vazifalarni bajarish ko'zda tutildi: MTT tarbiyachilarini maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy ruhni shakllantirish bilan bog'liq ilmiy-metodik adabiyotlar, didaktik materiallar bilan tanishtirish; tadqiqot olib borish davomida izlanishlarimiz natijasi o'laroq yaratilgan didaktik materiallarni amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar bilan tanishtirish; tajriba va nazorat guruhlarini belgilash; MTT faoliyat markazlarida dasturda belgilangan ta'lim va tarbiya mazmuniga milliy ruhda tarbiyalashni singdirish jarayonini tashkil etish; tajriba-sinov ishlari davomida olingan natijalarga ko'ra ishlab chiqilgan ilmiy metodik tavsiyalarni takomillashtirish; tarbiyalanuvchilarda milliy ruhni shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash.

Ikkinchi bosqichda ko'zda tutilgan tajriba-sinovlar ishlari yuqorida qayd etilgan Andijon shahridagi "Orzular kemasi" NMTT, Jalaquduq tumanidagi 28-son, Asaka tumanidagi 37-son DMTTlarda, Namangan viloyati Namangan shahridagi 6-21-sonli Chortoq tumanidagi 16-, 19-sonli Norin tumanidagi 29-, 25-sonli DMTTlarda, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 8-, 11-, 14-sonli

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tajriba hamda nazorat guruhlarini belgilab olindi. Dissertatsiyamizning birinchi va ikkinchi boblaridagi nazariy qarashlar hamda amaliy tavsiyalar tatbiq'i, ular asosida olib borilgan ishlarning natijasi o'laroq tajriba sinflarining barchasida tarbiyalanuvchilarning milliy "Men"ni his qilish, davlatimiz ramzlarini tanish, milliy kiyimlarni boshqalardan ajrata olish, milliy qahramonlar, milliy bayramlar bilish va mohiyatini anglash qobiliyat, ko'nikmalari o'sganligi yaqqol sezildi. Bolalar maktabga tayyorlov guruhi yoshida odamlar millatiga ko'ra farqlanishi, har bir millatning o'z tili, tarixi, qahramonlari, boshqalardan farq qiladigan kiyimlari, urf-odatlarini, oilaviy yashash shakllari mavjudligini anglab yetdilar, bu boradagi savollarga aniq, to'g'ri javob bera boshladilar.

**3. Yakunlovchi tajriba-sinov ishlari (2021-2022-o'quv yili).** Mazkur bosqichda tadqiqot davomida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari tahlil qilindi. Qarindoshlar siyomosidagi hamda bolaga tengdosh qahramon obrazlarini yaratish oxiriga yetkazildi, oila bilan hamkorlik ko'zlangan maqsadga muvofiq yo'lga qo'yildi. Tadqiqot ishiga nihoyasiga yetkazildi: yakuniy xulosalar chiqarildi hamda ular yuzasidan amaliyot uchun muayyan tavsiyalar ishlab chiqildi. Olib borilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari tahlili izlanishlarimizning ikkinchi bosqichida ishlab chiqilgan tarbiyalanuvchilarda milliy ruhni shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlaridan kelib chiqib amalga oshirildi. Ular quyidagi to'rt daraja bo'yicha baholandi:

1. Quyi daraja – o'zining qaysi millatga mansubligini biladi, lekin mamlakatni aytib berolmaydi, davlat ramzlaridan bayroqni taniydi, milliy til, urf-odat, an'analari haqidagi bilganlari mavhum, aniq javob berishga qiynaladi ularning kundalik turmushda qo'llanish o'rni va ahamiyatini idrok etmaydi, kiyiladigan milliy kiyimlarni taniydi, ularni chala tavsiflaydi, o'zbek xalqidan yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimizdan bilmaydi, milliy xarakter belgilari ham unda kuchsiz namoyon bo'ladi.

2. O'rta daraja – o'zining qaysi millatga mansubligini biladi, lekin mamlakatni viloyat yoki tuman/shahar bilan adashtiradi, davlat ramzlaridan bayroqni taniydi, milliy til, urf-odat, an'analarni biladi, ularning kundalik turmushda qo'llanish o'rni va ahamiyatini yaxshi idrok etmaydi, kiyiladigan milliy kiyimlarni taniydi, ularni tavsiflab bera oladi, o'zbek xalqidan yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimizdan yorqin namoyondalaridan bir yoki ikkitasinigina biladi, ularning kim ekanligini aytib berolmaydi, milliy xarakter belgilarini o'zida namoyon qiladi.

3. Yaxshi daraja – o'zining qaysi millatga, mamlakatga mansubligini biladi, davlat ramzlaridan bayroq va gerbni taniydi, milliy til, urf-odat, an'analarni biladi, ularning kundalik turmushda qo'llanish o'rni va ahamiyatini qiynalibroq idrok etadi (ba'zilarida yanglishadi), kiyiladigan milliy kiyimlarni taniydi, ularni tavsiflab bera oladi, o'zbek xalqidan yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimizdan yorqin namoyondalarini biladi, ularning kim ekanligini aytib berishda ikkilanadi, milliy xarakter belgilarini o'zida namoyon qiladi.

4. Yuqori daraja – o'zining qaysi millatga, mamlakatga mansubligini biladi, davlat ramzlarining asosiylarini taniydi, milliy til, urf-odat, an'analarni biladi,

ularning kundalik turmushda qo'llanish o'rni va ahamiyatini idrok etadi, kiyiladigan milliy kiyimlarni taniydi, ularni tavsiflab bera oladi, o'zbek xalqidan yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimizdan yorqin namoyondalarini biladi, ularning kim ekanligini aytib bera oladi, milliy xarakter belgilarini o'zida namoyon qiladi.

Tajriba-sinov jarayonlarida jami 519 nafar tarbiyalanuvchi qatnashib, ulardan nazorat guruhlarida 264 nafar, tajriba guruhlarida esa 255 nafarini tashkil etdi. Olingan ma'lumotlar jadvallar shaklida ifodalanib matematik-statistik tahlil qilindi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruhda tarbiyalash bo'yicha o'tkazilgan tajriba va nazorat guruhlaridagi statistik ko'rsatkichlar taqqoslandi (1-jadvalga qarang).

